



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2025
1-сон



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 1-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

А.Х.Мингбоев

Техник муҳаррир:

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида
тарқатилади.**

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори, DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc

А.М.Каримова – СамИСИ профессори в.б., DSc

МУНДАРИЖА:

НАЗАРИЯ ВА МЕТОДОЛОГИЯ	
Саидахроп Саидахмедович Гуломов, Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Ақлий меҳнатнинг ўзига хос хусусиятлари, унинг самарадорлигини ошириш йўналишлари	5
Умар Худайбердиев “Яшил” иқтисодиёт ривожланишининг муҳим омиллари	9
РАҚАМЛИ ВА ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТ	
Зарина Муродовна Мухаммедова Хизматлар соҳасининг виртуаллаштирилган инновацион инфратузилмасини шакллантиришда электрон иқтисодиёт воситаларидан фойдаланиш имкониятлари	12
Sirojiddin Abdullayevich Maxmudov Raqamli iqtisodiyot sharoitda elektron savdoning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar	16
Jonibek Adxam o'g'li Maxmudov Mintaqani barqaror rivojlantirishda turizm sohasidagi tarkibiy o'zgarishlar va ularda raqamli texnologiyalarning ahamiyati	22
САНОАТ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ	
Бекзод Низамкулович Атамуродов Respublikamizda maxsus iqtisodiy zonalarining bugungi kundagi holati tahlili	28
ТАДБИРКОРЛИК, МЕҲНАТ, БАНДЛИК ВА КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ	
Ашур Али Рустам ўғли Латипов Камбағалликни қисқартиришда иш билан бандликни таъминлашнинг стратегик йўналишлари	31
ХИЗМАТ КўРСАТИШ ВА СЕРВИС	
Тулкин Саидахмедович Шарипов Овқатлантириш хизматларини ривожлантиришда оммавий ахборот воситалари ва ижтимоий тармоқлардан фойдаланиш имкониятлари	39
Шохида Ильясовна Артикова, Дилафруз Бахриллоевна Абдуллаева Развитие сферы услуг в условиях цифровой трансформации экономики	43
Zafarjon A'zamovich Axmedov Tibbiy xizmatlari bozorida iste'molchi (bemor)larning talabini baholash borasida yondoshuvlari	47
Мурод Нозирович Ибрагимов Совершенствование формы и содержания технического задания на оказание консультационных услуг	51
Фарход Анварович Сафаров Хизмат кўрсатиш корхоналари фаолиятини такомиллаштиришда innovatsion jarayonlarning xususiyatlari	57
Nasiba Ergasheva Keytering outsorsing xizmatlarini rivojlantirishning zamonaviy tryendi sifatida	62
Khudoynazar Ergashev, Azizbek Khabibullaev, Odiliya Soibnazarova Supporting the service sector from the state government mechanism	66

- процессов модернизации и диверсификации – наша приоритетная задача. // Народное слово, 17 января 2015г.
2. Указ Президента Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёева «О стратегии «Узбекистан-2030»» от 11.09.2023 г. № УП-158
 3. Очиллов И. Бозор муносабатлари шароитида хизматларнинг турлари ва уларнинг таснифи. Хизмат кўрсатиш, сервис ва туризм соҳаларини ривожлантириш: муаммолар ва уларнинг ечимлари. (монография) – Т.: IQTISOD-MOLIYA, 2008, 18 бет
 4. Каримова Д.М. Расширение экспортного потенциала сферы услуг: обзор мировой практики и рекомендации для Узбекистана//Рынок, деньги, кредит, №7, 2016
 5. Ilyasovna A. S. YANGI O‘ZBEKISTON SHAROTIDA MAISHIY XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI //Journal of marketing, business and management. – 2023. – Т. 2. – №. 7. – С. 9-14.
 6. Ilyasovna A. S., Xusenovna A. N. Small Business in the Social Sphere: The Importance of Small Businesses as Drivers of Community Development //Best Journal of Innovation in Science, Research and Development. – 2024. – Т. 3. – №. 4. – С. 158-165.

<p style="text-align: center;">Sh.Artikova, D.Abdullayeva Iqtisodiyotni raqamli transformasiyalashuvi sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishi</p> <p>Annotatsiya. Maqolada iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish xususiyatlari yoritilgan. Shu bilan birga, aholi turmush sifati va darajasini oshirishni ta‘minlashda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish muhimligi asoslab berilgan.</p> <p>Kalit so‘zlar: xizmatlar, axborot kommunikatsiyalari, raqamli platformalar, biznes jarayoni, shaxsiy xizmatlar, aloqa xizmatlari, bandlik, sun‘iy intellekt, savdo.</p>	<p style="text-align: center;">Sh.Artikova, D.Abdullaeva Development of the service sector in the context of digital transformation of the economy</p> <p>Abstract. The article highlights the features of the development of the service sector in the context of the digital transformation of the economy. At the same time, the importance of using digital technologies for the development of the service sector in ensuring an increase in the quality and standard of living of the population is substantiated.</p> <p>Keywords: services, information communications, digital platforms, business process, household services, communication services, employment, artificial intelligence, trade.</p>
---	--

Zafarjon A‘zamovich Axmedov – SamDTU mustaqil tadqiqotchisi

TIBBIY XIZMATLARI BOZORIDA ISTE‘MOLCHI (BEMOR)LARNING TALABINI BAHOLASH BORASIDA YONDOSHUVLARI

Annotatsiya. Tibbiy xizmatlar sohasi mamlakatimizda yildan-yilga rivojlanib bormoqda. Tibbiyot sohasiga innovatsion texnologiyalarni jalb etish zaruriyati rivojlanishning bosh omillaridan biri hisoblanadi. Bunday tendentsiya mamlakatimizning chekka hududlariga ham kirib bormoqda. Mazkur maqola sog‘liqni saqlash tizimi, xususan tibbiy xizmati sifatini oshirish maqsadida mijoz (bemor)larni bozor talabini o‘rganish tendensiyalariga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: tibbiyot xizmatlari, TDABS, tibbiyot bozori, “mijoz yo‘li”, bemorning “moyilligi”, “real klinik tajriba”, “bemorning istiqboli”, NPS va CSI indeksleri, samaradorlik, daromad.

Kirish. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ma‘lumotiga ko‘ra, dunyo aholisining deyarli yarmi eng kerakli tibbiy xizmatlar bilan to‘liq qamrab olinmagan. 800 milliondan ortiq aholi yoxud dunyo aholisining 12 foizi daromadlarining kamida 10 foizini sog‘liqni saqlash xarajatlariga sarflashadi. Zamonaviy sog‘liqni saqlash xizmatlari sohasi milliy

iqtisodiyotimizning eng jadal rivojlanib kelayotgan tarmoqlardan biridir [1]. Oxirgi yillar sog‘liqni saqlash tizimida moliya sohalaridagidek boshqaruv innovasiyalarda faol vaqt asosidagi xarajatlarning “tejamkor yondashuv” va “qiymatga yo‘naltirilgan yondashuv”idagi hisobi (TDABS – time-driven activity-based costing). Sog‘liqni saqlash xizmatlari bozorining bugungi kun trendlariga: konsyumerizm, resurslarning optimallashtirish, tibbiyot xizmatlarini ko‘rsatish jarayonida shaffoflik, kross-industrial innovasiyalarning joriy etilishi sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. M.Porter tomonidan ta‘kidlanishicha, sog‘liqni saqlash tizimida qimmatdorlikka yo‘naltirilgan yondashuvda bemorga davolash muolajasi taqdim etilayotganda, uning xohishistagini e‘tiborga olish muhimdir [2]. Ya‘ni bunday yondashuv istiqbolda bemorning hoxish-istagining bosh paradigma sifatida ko‘rilishi tibbiy xizmatning mavjudligidan tortib, uning servisi va qulayligi hamda sog‘liqni saqlash xarajatlarini kamaytirish tamoyillari oldidagi ustunlikni belgilab bermoqda. Shuningdek, Yu.A.Zuyenkova [3], Yu.V.Lukina [4], A.V.Ivanov [5] kabi MDH olimlari tibbiy xizmatlarning sifatini baholash orqali mazkur bozorni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy qarashlarni keltirgan bo‘lishsa, mahalliy olimlar qatoridagi I.X.Axmadjanov [6], D.X.Raxmanov [7], M.E.Dadaxodjayeva [8] ilmiy tadqiqotlari sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy mexanizmlarning dolzarbligi bilan alohida e‘tiborga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Tibbiyot xizmatlari bozorining bugungi kundagi bosh konsepsiyasi iste‘molchiga, ya‘ni bemorga mo‘ljallanganlikdir. Uning asosida esa, tibbiyot xizmatlari bozoridagi iste‘molchilarning xulq-atvorini o‘rganish kabi muhim vazifalari quyilmoqda. Mazkur vazifani yechish maqsadida tadqiqotlarimizni sog‘liqni saqlash tizimidagi tadqiqotlarining, ya‘ni bemordagi qimmatdorlikni namoyon bo‘lishini o‘rganish, xizmat sifatidan qoniqishdagi “mijoz yo‘li”ni shakllanishi, bemorning “moyilligi”, “real klinik tajriba”ning shakllanishi kabi muammolarni hal etishiga ta‘sir etuvchi asosiy trendlarni belgilab olish maqsadida statistik tahlillar, kuzatuv va intervyu metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Jahonda sog‘liqni saqlash tizimi ko‘p qirrali hisoblanadi. Tibbiy xizmatlarning turli yo‘nalishlari va shakllari masalan, davolash-sog‘lomlashtirish sog‘liq uchun ko‘plab foydali jihatlarda va ta‘sirlarga ega. Bu borada tabiiy resurslar ko‘plab mamlakatlarning asosiy boyligi bo‘lib, tabiatga asoslangan faoliyat esa tibbiy xizmatlarning tamal toshi sanaladi. Global Sog‘lomlashtirish Instituti (Global Wellness Institute) “2023 yilda dunyoda tibbiy xizmatlar bozorining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanmish davolash-sog‘lomlashtirish xizmatlarining hajmi 830 milliard AQSh dollariga teng bo‘lganini baholagan” [9].

Tadqiqotlarimiz davomida 2015-2024-yillar mobaynida Respublikamiz hududlarida tibbiy xizmatlar sohasini rivojlanishi va o‘shish sur‘atlari tahlil qilindi (1-jadval).

1-jadval

2015-2024- yillarda tibbiy xizmatlar sohasini rivojlanishi va o‘shish sur‘atlari (foizda)

[10]

Viloyatlar	Yillar											2024 yilda-2015-yilga nisbatan o‘zgarish (+;-) foiz
	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024		
O‘zbekiston Respublikasi	117,2	122,2	116,9	113,4	114,7	94,8	128,5	113,4	112,3	125,776	8,576	
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	123,8	129,9	116	105,5	103,5	93,9	118,7	115,8	118,7	132,944	9,144	
Andijon viloyati	123,1	120,8	118,4	122,7	112,1	95,8	121,7	113,3	98,1	109,872	-13,228	
Buxoro viloyati	121,6	126,8	114,6	101,9	111,4	83,7	128,4	132,9	106,6	119,392	-2,208	
Jizzax viloyati	125,4	123	115	122,5	111,6	88,6	157	103,9	113,2	126,784	1,384	
Qashqadaryo viloyati	119,4	101,4	128,1	112,5	121,3	95,1	127,8	108,7	120,3	134,736	15,336	
Navoiy viloyati	134,3	125,3	119,8	120,1	125,8	106	125,1	117,9	103,2	115,584	-18,716	
Namangan	104,3	119	112,9	114,8	122,5	78,4	147,3	116	110,7	123,984	19,684	

	viloyati											
	Samarqand viloyati	116,6	120,7	114	112,1	112,7	125,1	120,4	122,9	117,3	131,376	14,776
0	Surxondaryo viloyati	122,4	100,3	125,1	111,9	117,9	107,4	178,4	81,4	113,1	126,672	4,272
1	Sirdaryo viloyati	111,2	109,8	112,8	120,2	124,1	104,5	150,4	107,9	115,5	129,36	18,16
2	Toshkent viloyati	128,3	105,9	122,3	128,4	114,4	77	165,4	124,8	122,5	137,2	8,9
3	Farg'ona viloyati	117,4	110,9	110,3	108,1	108,2	96,4	135,5	114,9	107	119,84	2,44
4	Xorazm viloyati	113,9	133,7	120,4	105,2	114,3	110,5	130,3	111,7	112,2	125,664	11,764
5	Toshkent shahri	113,5	132,3	117	112,1	115,5	94,9	116,5	110,7	111,9	125,328	11,828

1-jadval tahlil natig-jalari 2015-2024-yillar mobaynida Respublikamiz hududlarida tibbiy xizmatlar sohasini rivojlanishi va o'sish sur'atlarida o'zgarishlar ro'y berganini ko'rsatdi. 2015-2024-yillarda mamlakatimiz hududlarida tibbiy xizmatlar o'sish sur'atlari 8,5 foizni tashkil etgan. Yuqori ko'rsatkich sur'atlari Namangan viloyatida 19,6 foiz, Sirdaryo viloyatida 18,1 foiz, Samarqand viloyatida 14,7 foizga o'sgan. Ba'zi hududlarda o'rganilayotgan davr mobaynida mamlakatimiz hududlarida tibbiy xizmatlar o'sish sur'atlariga nisbatan teskari tendentsiyalar shakllangan. Masalan, tibbiy xizmatlar Navoiy viloyati 18,3 foiz, Andijon viloyatida 13,2 foiz, Buxoro viloyati 2,7 foizga qisqargan. Buni eng avvalo tibbiy xizmatlar bozorini qisqarganligi va tarkibiy o'zgarishlar natijasini hosilasi ta'siri doirasida yuz bergan de'yishimiz mumkin. Shu nuqtai-nazardan tibbiy xizmatlar bozorida talabni shakllantiruvchi iste'molchilarning (bemorlarning) hoxish - istagini baholash yondoshuvi muhim ahamiyat kasb etadi degan xulosa keldik va ularni quyidagicha guruhlariga ajratdik:

1. Tibbiy xizmatni shakala bo'yicha ko'rsatkichlarni o'lchash;
2. Tibbiy xizmatni vaqt bo'yicha ko'rsatkichlarni o'lchash;
3. Tibbiy xizmatni standart tanlov bo'yicha ko'rsatkichlarni o'lchash;
4. Tibbiy xizmat uchun to'lovni amalga bo'yicha ko'rsatkichlarni o'lchash;

Birinchi baholash yondoshuv bo'yicha – bemorni sog'liq holati tahlil etiladi.

Ikkinchi baholash yondoshuv bo'yicha – bemorni sog'liq holatini yillar davomida holati tahlil etiladi.

Uchunchi baholash yondoshuv bo'yicha – bemorni sog'liq holati joriy holati tahlil etiladi.

To'rtinchi baholash yondoshuv bo'yicha – bemorni tibbiy xizmat uchun to'lovni amalga oshirish layoqati tahlil etiladi.

O'zbekiston – 2030" strategiyasi – tibbiyotning kelgusi xaritasi doirasida mamlakatimizda olib borilayotgan davlat siyosatining markazida inson va uning manfaatlari turishi tibbiy xizmatlar bozorini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. "O'zbekiston – 2030" strategiyasini ishlab chiqishda ana shu omil bosh mezon bo'ldi.Uning doirasida aholining o'rtacha umr ko'rish davomiyligini 78 yoshga yetkazish, buning uchun tibbiyotga yo'naltiriladigan mablag'lar hajmini 2 barobarga oshirish, onkologiya, yurak-qon tomir, diabet va nafas yo'llari kasalliklari bo'yicha erta o'limni 2,5 barobar kamaytirish, O'zbekistonni "Sil xastaligidan holi mamlakat"ga aylantirish ko'zda tutilgan.Binobarin, 350 ming nafar qandli diabet va 1,5 million yurak-qon tomir kasalligi bor bemorlarni davolash bilan to'liq qamrab olish, tibbiy yordamga muhtoj aholining 70 % murojaatlarini birlamchi bo'g'inning o'zida hal etishga erishish, bemorlarni gemodializ o'rin-joylari bilan to'liq qamrab olish maqsad qilingan. Namangan, Farg'ona, Sirdaryo, Qashqadaryo, Navoiy viloyatlari va Toshkent shahrida tibbiyot klasterlari tashkil etiladi. Qashqadaryoda bolalar shifoxonasi, tug'uruq kompleksi, skrining markazi, reproduktiv salomatlik markazi joylashgan mujassam bir kompleks "Ona va bola" klasteri ishga tushiriladi. Bolalar o'rtasidagi irsiy kasalliklarni 2 barobarga qisqartirish, chaqaloqlarda bunday xastaliklar bo'yicha selektiv skrining tekshiruvlar qamrovini kamida 50 %ga oshirish yuzasidan ham zarur chora-tadbirlar belgilangan. Onalar va bolalar, qolaversa, onkologik xastaliklardan o'lim ko'rsatkichini kamaytirish, yuqumli bo'lmagan kasalliklarni erta aniqlash darajasini 70 %ga yetkazish, 40 va undan katta yoshdagi aholi orasida qandli diabet va arterial gipertoniya kasalliklarining erta bosqichida aniqlash darajasini 2 barobarga oshirishga

alohida e'tibor qaratiladi. Strategiyadan 55 va undan katta yoshdagi aholini 100 % tibbiy profilaktik ko'rikdan o'tkazish va sog'lomlashtirish, 40 va undan katta yoshdagi aholi orasida jismoniy faol aholi ulushini 2 barobar oshirishga doir chora-tadbirlar ham o'rin olgan.

Aholi o'rtasida to'g'ri ovqatlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish ham ustuvor maqsadlarimizdan biri bo'ladi. Shu bilan birga, yurtimizdagi tibbiyot muassasalarini raqamlashtirish darajasi 100 foizga yetkaziladi.

Bir so'z bilan aytganda, “O'zbekiston – 2030” strategiyasi – tibbiyotning kelajakdagi xaritasi vazifasini o'taydi.

Xulosa va takliflar. Tibbiyot xizmatlari bozorida iste'mochi (bemor)ning talabini o'rganishda professional meditsina ommasi bilan birga bozor talabi tadqiqotlarini olib boruvchilar o'rtasidagi hamkorlikni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Tibbiyot xizmatlari bozorida iste'mochi (bemor)ning talabi borasida tadqiqotlar olib borish nafaqat, meditsina xizmatlarini taklif etuvchilarning rivojlantirishga, balki mazkur bozorning raqobat kurashini shakllantiradi. Bu esa, avvalambor, tibbiy xizmatlar sifatini ta'minlashga xizmat qiladi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu nuqtai-nazardan mamlakatimizda tibbiy xizmatlar bozorini rivojlantirishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish istiqbolda samarali natijalarga olib keladi deb hisoblaymiz va ular taklif etishni ta'bir joiz deb topdik:

1. O'zbekistonda tibbiyot xizmatlari bozorini rivojlantirish maqsadida tibbiy ta'limni innovatsiyalarni jalb qilish muhim ahamiyatga ega. Xususan, tibbiyot oliy o'quv yurtlarida 2025/2026 o'quv yilidan boshlab bakalavriat, magistratura va klinik ordinatura o'quv rejalariga “nano texnologiya”, “tibbiyot genetikasi”, “IT-texnologiya” kabi fanlar kiritish va xorijiy pedagoglarni jalb qilgan holda o'quv jarayonlari tashkil etish lozim.

2. Respublika tibbiyot OTMda o'qish muddati 4 yillik “oliy malakali hamshira” bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashga ruxsat berish;

3. Mamlakatimizda o'rta tibbiyot xodimlariga oliy ma'lumot beruvchi va qayta tayyorlovchi Hamshiralik akademiyasi tashkil etish. Ushbu akademiya negizida Xorijning masalan, Turkiyaning Sog'liq bilimlari universitetining “Hamshiralik ishi” fakulteti ochish;

4. Xalqaro hamkorlik doirasida Germaniyaning KfW banki va GIZ ishtirokida Termiz shahrida tibbiy ta'lim va malaka oshirish dasturlarini modernizasiya qilish;

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 07.12.2018-йилдаги ПФ-5590- сонли “Ўзбекистон Республикаси соғлиқни сақлаш тизимини тубдан такомиллаштириш бўйича комплекс чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони;
2. Porter M., Teisberg E. Redefining Health Care: Creating Value Based Competition on Results. Harvard Business School Press, 2006;
3. Zuenkova, Yu.A. The struggle for patients and severe competition for compulsory health care. Vestnik MIRBIS, 2021;
4. Lukina, Yu.V.; Kutishenko, N.P.; Martsevich, S.Yu. Treatment adherence: modern view on a well known issue. Cardiovascular Therapy and Prevention, 2017;
5. Ivanov, A.V. Registers as the basis for data collection and evidence building. RealWorld Data & Evidence, 2021\$
6. Ахмаджанов И.Х. Кичик бизнес ва тадбиркорлик фаолиятида тиббиёт моддий-техника таъминоти хизматларини кўрсатиш ҳолати ва истиқболлари // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 6, ноябрь-декабрь, 2016 йил;
7. Раҳманов Д.Х. Ўзбекистон Республикасида соғлиқни сақлаш муассасаларини молиялаштиришнинг устувор йўналишлари // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 3, март, 2012 йил;
8. Дадаходжаева М.Э. Хорижий давлатларда соғлиқни сақлашни бошқаришнинг турли моделларига тавсиф ва халқаро амалиёт // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 4, июль-август, 2016 йил.
9. <https://globalwellnessinstitute.org/what-is-wellness/what-is-wellness>
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi. (Murojat vaqti 2025 y.18.03. soat 22:31,

<p>З.Ахмедов</p> <p>Подходы к оценке потребительского (пациентского) спроса на рынке медицинских услуг</p> <p>Аннотация. Система здравоохранения в Узбекистане трансформируется на основе совершенно новых подходов. В сфере широко применяются передовые методы лечения и диагностики, инновационные технологии. В результате квалифицированные медицинские услуги доходят до домов людей, живущих в отдаленных районах. Данная статья посвящена тенденциям изучения рыночного спроса клиентов (пациентов) с целью повышения качества системы здравоохранения, в частности медицинских услуг.</p> <p>Ключевые слова: медицинские услуги, TDABS, «клиентский путь», «лояльность» пациента, «реальный клинический опыт», «перспектива пациента», индексы NPS и CSI, эффективность, доход.</p>	<p>Z.Akhmedov</p> <p>Approaches to assessing consumer (patient) demand in the medical services market</p> <p>Abstract. The healthcare system in Uzbekistan is being transformed based on completely new approaches. Advanced treatment and diagnostic methods and innovative technologies are widely used in the field. As a result, qualified medical services reach the homes of people living in remote areas. This article is devoted to trends in studying the market demand of clients (patients) in order to improve the quality of the healthcare system, in particular medical services.</p> <p>Keywords: medical services, TDABS, "customer journey", patient "loyalty", "real clinical experience", "patient perspective", NPS and CSI indices, efficiency, income.</p>
--	--

Мурод Нозирович Ибрагимов – директор консалтинговой компании ООО “LEAN PHARMA CONSULTING”.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФОРМЫ И СОДЕРЖАНИЯ ТЕХНИЧЕСКОГО ЗАДАНИЯ НА ОКАЗАНИЕ КОНСУЛЬТАЦИОННЫХ УСЛУГ

<p>Аннотация. В статье обосновывается необходимость разработки технического задания на консалтинговые услуги по внедрению стандарта «Надлежащая дистрибьюторская практика» (GDP), приводится, разработанное автором, форма и структура технического задания, а также перечень работ, включаемых в техническое задание на консалтинговые услуги по внедрению стандарта GDP.</p> <p>Ключевые слова: консалтинговые услуги, договор, техническое задание, “Надлежащая Дистрибьюторская Практика”, дистрибуция, лекарственные средства, оптовая торговля.</p>

Введение. С ростом экономики, появлением все больше новых направлений развития и новых участников рынка возрастает и потребность в услугах экспертов, профессиональных консультантов. В настоящее время инвестор, особенно, зарубежный, при инвестициях не обходится без привлечения экспертов–консультантов. Сфера консалтинговых услуг в Узбекистане находится на начальной стадии развития. В то же время, в связи с интенсивным развитием экономики, быстрым ростом числа предприятий на различных сферах зарождает нарастающий спрос на консультационные услуги.

Процесс оказания консультационных услуг представляет собой логическую, взаимосвязанную цепочку процедур, выполняемых совместными усилиями консультанта и клиента для полного решения проблемы и осуществления необходимых изменений в клиентской организации.

В услугах по внедрению стандарта «Надлежащая дистрибьюторская практика» («Good Distribution Practice» или общепринятое сокращение этого понятия как GDP) в фармацевтической сфере, проблема заранее обозначена – это отсутствие данного стандарта на предприятии, без которых продолжать деятельность по дистрибуции лекарственных средств не допускается действующим законодательством Республики Узбекистан. Задача консультанта подготовить предприятие и его документацию к инспекции по сертификации предприятия по утвержденному стандарту.

В Узбекистане по состоянию на 1 января 2025 года из 476 предприятий оптовой торговли лекарственными средствами 352 или 74,0% дистрибьютора сертифицированы по

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

14.03.2025 йилда теришга берилди. 25.03.2025 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табағи 13,87. Адади 100 нусха. Буюртма № 0012А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.